O’zbek astronomlari Yaponiya kosmik agentligi tomonidan e’tirof etildi

12-aprel — Butunjahon aviatsiya va kosmonavtika kuni. Bu sana arafasida O’zbekiston Repsublikasi Fanlar akademiyasi Astronomiya institutiga Yaponiya kosmik agentligi (JAXA)dan tashakkurnoma (“Honor award”) keldi. Bu bilan JAXA 2019-yilda Ryugu (162173) asteroidiga “Xayabusa-2” (“Lochin”) sayyoralararo kosmik apparatni uchirib, 2021-yilda undan olingan tuproq namunalarini Yerga yetkazgan muvaffaqiyatli missiyasini amalga oshirishda o’zbekistonlik astronomlarning hissasini ham yuksak baholaganlarini tasdiqlashdi.

Bu voqealardan ancha oldin, 2010-yilda ham Yaponiya kosmik agentligi olamshumul loyihani amalga oshirishga muvaffaq bo’lgan edi. JAXA “Xayabusa-1” kosmik kemasining Itokava asteroidiga parvozni

amalga oshirib, asteroid tuprog’i namunalarini yerga yetkazgan edi. Oydan minglab marta uzoqroq masofada joylashgan asteroiddan tuproq olib kelinishi jahon kosmonavtikasi rivojiga qo’shilgan muhim hissa bo’ldi. Loyihaning muhim ahamiyati shundaki, asteroidlar moddasi tarkibini o’rganish bu modda murakkab geologik jarayonlarga chalinmaganligi tufayli bundan bir necha milliard yil oldingi holatini saqlab qolgan va sayyoralar, xususan, Yer paydo bo’lgan protoplanetar bulut materiyasi to’g’risida muhim ma’lumotlar olindi.

Xalqaro astronomiya ittifoqi Yaponiyaning kosmonavtika rivojiga qo’shgan ulkan hissasini e’tirof etib, 2012-yilda bir qator asteroidlarga Xayabusa-1 missiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirgan yapon olimlari, muhandislari va konstruktorlari nomini berish uchun kvota ajratadi. Maxsus komissiya tuzilib, nomzodlarni saralash ishlari qizg’in boshlanib ketdi. Shu payt yaponiyalik astronomlar komissiya a’zolarini taajubga solib, ajratilgan asteroidlardan biriga O’zbekistondagi Maydanak observatoriyasi nomini berishni taklif etishadi. Ajratilgan har bir kvotaga bir nechtadan yaponiyaliklar to’g’ri kelib turgan bir paytda O’zbekistondagi observatoriya nomini berish haqiqatdan ham taajublanarli hol edi. Lekin yaponiyalik astronomlar o’zlarining takliflarini shunchalik asoslab berishdiki, ularning taklifi qabul qilindi va 22948-sonli asteroidga “Maydanak” nomi berildi. Shu tariqa yaponiyaliklar o’zbek astronomlarining Xayabusa-1 missiyasini amalga oshirishga qo’shgan hissasini yuksak e’tirof etdilar.

Shu o’rinda ta’kidlash joizki, kosmik kema parvozini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun uning traektoriyasini Yerdagi observatoriyalardan olib borilgan kuzatuvlar asosida muntazam ravishda to’g’rilab borish kerak. Bir tasavvur qilib ko’ring-a, asteroidga bir necha yil parvoz qilib, kosmik apparat uchrashuv nuqtasiga atigi bir soatga kechikib borsa asteroid bir necha ming kilometr uzoqlashib ketadi. Loyiha amalga oshmay qoladi.

Noyob astroiqlimi va qulay geografik joylashuvga ega Maydanak observatoriyasida astronomlarimiz Itokava va Ryugu asteroidlarini yuqori sifatli kuzatuv natijalari (osmon koordinatalari) bilan ta’minlash orqali JAXA missiyasining muvaffaqiyatiga o’zlarining kamtorona hissasini qo’shishdi.